

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA O'QUVCHILARDA EKOLOGIK BILIM VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH.

Abdiramanov J.B.

Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat pedagogika instituti. O'zbekiston,

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog'istondagi maktablarda tahsil olayotgan o'quvchilarda ekologik bilim va madaniyatni shakllantirishda geografiya fanining ahamiyati tushuntirilib, muayyan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologik bilim, ekologik madaniyat, ekologik inqiroz, tabiiy resurs, biologik xilma-xillik, atrof-muhit.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ И КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ В ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ

Абдираманов Ж.Б.

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажиниёза,
Республика Каракалпакстан, Узбекистан

Аннотация: В данной статье поясняется, значения географии по формированию экологического знания и культуры учениках обучающихся в школах Каракалпакстана и разработаны определенные предложения и рекомендации.

Ключевые слова: экологический знания, экологическая культура, экологический кризис, природный ресурс, биоразнообразие, окружающая среда.

FORMATION OF ECOLOGICAL KNOWLEDGE AND CULTURE IN STUDENTS THROUGH GEOGRAPHY EDUCATION

Abdiramanov J.B.

Ajiniyoz Nukus State Pedagogical Institute, Republic of Karakalpakstan, Uzbekistan

Abstract: This article explains the significance of geography in the formation of ecological knowledge and culture among students in schools of Karakalpakstan and develops certain proposals and recommendations.

Keywords: ecological knowledge, ecological culture, ecological crisis, natural resource, biodiversity, environment.

Davlatimiz Prezidenti Sh.M. Mirzyoevning rahbarligida qabul qilingan 2022 — 2026 yillarga mo'ljlanlangan Yangi O'zbekistonning rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishga oid Davlatti Dasturida;

Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha:

Jismoniy jiqatdan sog'lom, ma'naviy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, jiddiy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida ularning ijtimoiy faolligini oshirish; [1]

Yosh avlodning ijodiy va intellektual qobiliyatini qo'llab-quvvatlash hamda ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish hamda boshqa yoshlarga mo'ljallangan davlat siyosatini amalga oshirish vazifalari maqsad qilib qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev o'zining «YANGI O'ZBEKISTON-STRATEGIYASI» asarida «Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunshaki hoqish-istak, sub'ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslapiga ega bulgan, mamlakatimizdagi mabjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'nabiy-ma'rifiy baziyatning o'zi taqoza etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la jabob beradigan ob'ektiv zaruratdur»[2] deb qayd etkaninday ushbu vazifalarni amalga oshirishda, ayniqsa, o'rta ta'lim maktablarining ta'lim-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirish, bu ishlarda pedagogik jamoaning ta'lim-tarbiya berish turlarini boyitish, yangi pedagogik texnologiyalar asosida yoshlarni har tomonlama kamol toptirish g'oyat muhimdir.

Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan ekologik muammolarni hal etishda, albatta, yoshlarda ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Inson dunyoga kelar ekan, u avvalo o'z uyi, qishlog'i, ko'chasi, tug'ilgan maskani, keyin butun dunyoni anglay boshlaydi, mehr qo'yadi, uni Vatan deb ardoqlaydi. Vatan oiladan boshlanadi deganlarining ma'nosi shu.

Inson tabiat bilan uzviy bog'liq. U tabiat bilan aloqa va munosabatda bo'lmasdan, yashashi mumkin emas. Inson hayotini tabiatdan, tabiiy boyliklardan ayri holda tasavvur qilish mumkin emas.

XXI asr eshiklarini dadil ochgan yurtimiz mustaqilligi bizga Vatan tushunchasi, tug'ilgan yurt, ona tilimiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, o'zligimizni anglash baxti berdi, eng muhimi yetti otamiz, ajdodlarimizni, ularning kimligi, yashagan davri, hayotdagi o'rnini bilish, ajdodlarimiz xotirasini e'zozlash, ular maskan tutgan joylarni bilishga bo'lgan qiziqish va burchimizni uyg'otdi.

Tabiatni e'zozlash, atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi ko'rsatmalar ajdodlarimizdan asrlar osha o'ta ma'naviy meros sifatida ilhom manbai bo'lib kelgan. Tabiatga mehribonlik inson dunyoga kelgan paytidan, go'daklik chog'idan uning qalbiga singa boshlaydi. Tabiatga mehri kuchli bo'lgan insonning el-yurtga, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbati ham yuksak bo'ladi. Ta'lim-tarbiyada, ayniqsa, tabiatni e'zozlash haqidagi sharq xalqlariga xos hikmatli so'zlar ko'p. Buning uchun avvalo kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ekologik madaniyatli yoshlar etib tarbiyalashimiz kerak. [6]

Vatanimizda ekologik sharoit va ekologik tarbiyaga mustaqilligimizdan keyin katta e'tibor qaratildi. Ungacha esa O'zbekistondagi ekologik muammolar e'tiborga olinmagan. Shu sababli mamlakatimizdagi ekologik vaziyat bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarni hal etishda ekologik tarbiya ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Endilikda atrof-muhit, tabiat boyliklariga e'tiborsiz bo'lish butun sayyoraga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligi aniq bo'lib qoldi. Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammolarini hal etish zarurati tug'ildi.

Shu yo'nalishda ekologik holatni sog'lomlashtirish ustuvor ishlardan biri bo'lib qoldi.

Geografiyaning boshlang'ich kursi bo'lgan "Tabiiy geografiya"ni o'rganuvchi o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, ularga tabiat, atrof-muhit bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rgatish ta'lim tizimining dolzarb masalasiga aylandi.

Yangi asrning navqiron insoni o'zida ekologik tarbiya elementlarini ham namoyon eta olishi zamon talabi bo'lib qoldi. Ekologik bilim - atrof-muhit haqidagi chuqur bilim, tabiatni asrash tuyg'usiga ega bo'lish, o'simliklar hamda hayvonlarga g'amxo'rlik ko'rsatish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ularni ko'paytirish masalasiga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko'rsatkichidir.

Ana shu xususiyatlarni o'zida namoyon eta olgan insonni ekologik tarbiya sohibi deb atash mumkin.

Ortiqcha suvni iflos qilmaslik, suv havzalarini iflos qilmaslik, chiqindilarni duch kelgan joyga to'kmaslik, turar joylarni ozoda saqlash, ko'chat va gullarni sindirmaslik hamda ularni ekish, hayvonlarga, qushlarga g'amxo'rlik qilish, hovli oldi va ko'chalarni gulzorlarga aylantirish kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatning eng oddiy ko'rinishidir.

Ekologik ta'lim va tarbiya - insonni tabiatga qadam qo'ygan paytidan boshlab, butun umri davomida tabiatdan oqilona va ongli ravishda foydalanish, yosh avlodlarni tabiatga hurmat va e'tibor bilan qarash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish tuyg'usiga tarbiyalash, bog'lar, gulzorlar barpo etishga moslashtirish, inson qalbida ezgu tuyg'ular uyg'otishdan iboratdir.

Bugungi kunda ekologiya, ekologik ta'lim masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Geografiya darslarida dars va darsdan tashqari vaqtlarda ekologik bilim muntazam ravishda berib borilmoqda. Ekologik ta'lim berish maqsadida darsliklar tarkibiga ham bir qancha mavzular kiritilib, bu albatta o'quvchilarning bilim va tarbiyasini oshirishga yordam beradi. [8]

Geografiyaning boshlang'ich kurslarida ekologik ta'lim dars va darsdan tashqari vaqtlarda amalga oshiriladi. Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarni tabiat qo'yniga, tabiat muzeylariga sayohatga olib chiqib, hasharlar, suhbatlar o'tkazish orqali ekologik tarbiya elementlari shakllantiriladi.

Dars jarayonida o'quvchilar ekologik tarbiyani o'qituvchining tushuntirishi hamda darsliklarda berilgan mavzular orqali oladilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar o'quvchilarning qiziqishlariga muvofiq ravishda ixtiyoriylik asosida tashkil etilishi lozim. O'quvchilar sinfdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtirgan mashg'ulotlarni tanlab oladilar va ular bu ishlarga o'zlari shaxsiy tashabbus asosida qatnashadilar. [4]

Xulosa qilib aytganda, ekologik tarbiya berish orqali o'quvchilar:

- tabiat, uning komponentlari, ular o'rtasidagi qonuniyatlar haqidagi ilmiy-amaliy bilimga ega bo'ladi;
- umuminsoniy ekologik dunyoqarash shakllanadi;
- tabiat boyliklari zaxiralarini asrab-avaylash va ulardan oqilona foydalanish ko'nikmalari hosil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.02.2023 yildagi PF-27-son (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.03.2023-y., 06/23/27/0121-son)
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. Tashkent «O'zbekiston» nashriyoti,- 2021.yil-464 b
3. Abdiramanov J.B., Usmanov M.R. Қорақалпоғистон республикасида экотуризмни ривожлантиришнинг бази бир географик жиҳатлари. «O'zbekistonda geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish yo'llari» Respublika ilmiy-amaliy konferensiya MATERIALLARI. 129-133 betlar. Жиззах 2023.
4. Abdiramanov. J.B. "Geografiya taliminde ekologiyaliq bilim menen tarbiyani qaliplestirishdiñ ozgesheliklari" "Qaraqalpaqstandağı birinshi ilim-bilim dargayına 90 jıl (Ajiniyaz atındağı nókis mámleketlik pedagogikalıq institutınıñ ashılğanına 90 jıl)" atamasındağı xalıqaralıq konferenciya MATERIALLARÍ TOPLAMÍ. Nókis, 30-31-oktyabr, 2024-jıl. 2-bólim. 157-160 бетлер.
5. Беркунова Л.А. Экологическая культура в аспекте становления ценностей современного общества. Дис. М. 2004 – с. 4.
6. Gaypova R.T. J.Abdiramanov. Innovatsion texnologiya: Zamonaviy geografiya O'zbekiston geografiya jamiyati Axboroti 32 – jild 144-146 b.
7. Гирусов Е.В. природные основы экологической культуры Экология, культура, образование (материалы и конференции).– М:Б.И.,1989. с11–19.
8. Usmanov M.R., Abdiramanov J.B. "Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida turizmni rivojlantirish imkoniyatlari». FAN va JAMIYAT №3. Ilmiyuslubiy jurnal ISSN 2010-720X. Ilim hám jámiyet. №3. 2023. 51-52 betlar. <https://journal.ndpi.uz/>